

## O'ZBEK VA RUS TILLARIDA SON SO'Z TURKUMINING QIYOSIY O'RGANILISHI

*Farg'ona davlat universiteti, rus tili  
metodikasi kafedrasи o'qituvchisi*

**Xamidova Maxbuba Kaharovna**

*Farg'ona davlat universiteti, chet tillari  
fakulteti tillarnio 'qitish:ingliz tili*

*yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Hakimjonova Mohimbegim Mansurjon qizi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek va rus tillarida son so'z turkumlarining qiyosiy o'rganilishi yoritilgan. Har ikki tildagi sonlarning turlari, grammatik xususiyatlari va o'xshash hamda farqli jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, sonlarning zamonaviy hayotdagi, ayniqsa raqamli texnologiyalar va fan-texnika sohalaridagi o'rni haqida fikr yuritilgan. Tillarni o'rganishda sonlar mavzusining ahamiyati ham alohida ta'kidlangan. Maqola lingvistik qiyosiy tahlil asosida yozilgan bo'lib, amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, rus tili, son so'z turkumi, qiyosiy tahlil, grammatika, raqamli texnologiyalar, tilshunoslik.

**Abstract:** This article presents a comparative study of numeral word classes in Uzbek and Russian languages. It analyzes the types, grammatical features, similarities, and differences of numerals in both languages. The paper also discusses the significance of numerals in modern life, especially in digital technologies and scientific fields. The importance of understanding numerals when learning a language is also emphasized. The article is based on a linguistic comparative analysis and has practical value.

**Keywords:** Uzbek language, Russian language, numeral word class, comparative analysis, grammar, digital technologies, linguistics.

**Аннотация:** В данной статье представлен сравнительный анализ числительных в узбекском и русском языках. Рассматриваются типы числительных, их грамматические особенности, сходства и различия. Также обсуждается значение числительных в современной жизни, особенно в условиях развития цифровых технологий и науки. Отмечена важность знания числительных при изучении языков. Работа основана на лингвистическом сравнительном подходе и имеет практическую ценность.

**Ключевые слова:** узбекский язык, русский язык, числительные, сравнительный анализ, грамматика, цифровые технологии, лингвистика.

Til – murakkab tizim bo'lib, insonlar o'rtasida fikr almashish, muloqot qilish va o'zaro tushunish uchun xizmat qiladi. Uning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan so'z turkumlari orasida son alohida o'rinni egallaydi. Chunki u predmetlarning miqdoriy ko'rsatkichlarini, sanog'ini va tartibini aniq ifodalash imkonini beradi. Sonlar nafaqat tilshunoslikda, balki matematika, statistika, iqtisodiyot, muhandislik kabi aniq fanlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o'zbek va rus tillaridagi son so'z turkumlarining qiyosiy tahlili, ularning o'xshash va farqli jihatlari, tuzilish xususiyatlari va qo'llanish doiralari batafsil yoritiladi.

Son so'z turkumi predmetlarning miqdorini, sanog'ini, tartibini bildiruvchi so'z turkumidir. U insoniyat faoliyatining turli sohalarida muhim rol o'ynaydi: matematika, statistika, iqtisodiyot, fan va texnika, kundalik hayotda va hokazo. Ushbu maqolada o'zbek va rus tillarida son so'z turkumlarining qiyosiy tahlili, ularning o'xshash va farqli jihatlari hamda bugungi kundagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

### **O'zbek tilida son so'z turkumi**

O'zbek tilida son so'z turkumi predmetning miqdorini, sanog'ini yoki tartibini bildirib, "nechta?", "nechanchi?" so'roqlariga javob beradi. O'zbek tilidagi sonlar o'z ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Sanoq sonlar: Predmetlarning miqdorini umumiylashtirish holda ifodalaydi.

- Misollar: bir kitob, ikki qalam, uch olma, to'rt stul, besh bola.
- Dona sonlar: Predmetlarning aniq sonini, donasini ko'rsatadi.
- Misollar: bitta daftar, ikkita ruchka, uchta nok, to'rtta parta, beshta o'quvchi.
- Tartib sonlar: Predmetlarning tartibini, o'rnini ko'rsatadi.
- Misollar: birinchi qator, ikkinchi o'rinni, uchinchi dars, to'rtinchchi uy, beshinchchi mashina.
- Chama sonlar: Predmetlarning taxminiy, noaniq miqdorini ifodalaydi.
- Misollar: bir necha kishi, bir qancha odam, ko'p kitoblar, oz vaqt, ancha pul.
- Kasr sonlar: Butunning bir qismini ifodalaydi.
- Misollar: bir butun o'ndan bir metr, ikki butun yuzdan yetti foiz, uchdan bir qism, to'rtadan uch ulush, beshdan ikki hissa.

### **Rus tilida son so'z turkumi**

Rus tilida son (имя числительное) ham predmetlarning miqdorini, sanog'ini yoki tartibini bildirib, "сколько?", "который?" so'roqlariga javob beradi. Rus tilidagi sonlar o'z ma'nosiga va grammatik xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- Miqdor sonlar (Количественные числительные): Predmetlarning miqdorini umumiylashtirish holda ifodalaydi.
- Misollar: один стол, два карандаша, три яблока, четыре стула, пять детей.
- Tartib sonlar (Порядковые числительные): Predmetlarning tartibini, o'rnini ko'rsatadi.

- Misollar: первый ряд, второе место, третий урок, четвертый дом, пятая машина.
- Kasr sonlar (Дробные числительные): Butunning bir qismini ifodalaydi.
- Misollar: одна вторая часть, три пятых доли, одна целая и одна десятая метра.
- Yig'ma sonlar (Собирательные числительные): Bir nechta predmetni birligida ifodalash uchun ishlataladi.
- Misollar: двое друзей, трое суток, четверо ворот, пятеро котят.

### **Qiyosiy tahlil: O'xshash va farqli jihatlar**

O'zbek va rus tillarida son so'z turkumlarining o'xshash jihatlari quyidagilardan iborat: har ikki tilda ham sonlar predmetning miqdorini, sanog'ini yoki tartibini bildiradi. Ikkala tilda ham miqdor (sanoq) va tartib sonlar mavjud. Shuningdek, har ikkala tilda kasr sonlar ham uchraydi.

Farqli jihatlarga kelsak, o'zbek tilida dona sonlar mavjud bo'lib, rus tilida bu ma'no boshqa so'zlar bilan ifodalanadi (masalan, "dve shtuki"). Rus tilida sonlar jins, son va kelishiklar bo'yicha o'zgaradi, o'zbek tilida esa bu xususiyat yo'q. Masalan, rus tilida "dva stola" (ikki stol), "dve knigi" (ikki kitob) kabi jinsga qarab sonning shakli o'zgaradi. Bundan tashqari, rus tilida yig'ma sonlar mavjud (dvoe, troe), o'zbek tilida bunday tur yo'q. O'zbek tilida chama sonlar (bir necha, bir qancha) keng qo'llaniladi, rus tilida ularning to'liq mos analoglari yo'q. Rus tilida sonlar tarkibiga ko'ra sodda, hosila va murakkab bo'lishi mumkin, bu o'zbek tilida ham kuzatiladi, lekin unchalik urg'u berilmaydi.

Xulosa qilib aytganda o'zbek va rus tillarida son so'z turkumlari tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda bu turkum muhim grammatik rol o'ynaydi va ularning shakllanishi hamda qo'llanilishi o'xshashliklar bilan bir qatorda sezilarli farqlar ham mavjud. O'zbek tilida sonlar ko'proq mustaqil va barqaror shaklda ishlatsa, rus tilida ularning jins, son va kelishik bo'yicha o'zgarishi murakkab grammatik tizimni tashkil etadi. Shu bilan birga, har ikkala til uchun sonlarning kundalik hayot, fan, texnika va axborot texnologiyalaridagi o'rni juda katta. Son so'z turkumlarini qiyosiy o'rganish orqali nafaqat grammatik bilimlar chuqurlashadi, balki til o'rganishda amaliy ko'nikmalar ham ortadi. Bu mavzu bo'yicha tadqiqotlar davom ettirilsa, boshqa tillar bilan ham taqqoslash imkoniyatlari paydo bo'ladi va lingvistik bilimlar yanada boyiydi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Шанский, Н. М., Тихонов, А. Н. Современный русский язык. В 3 ч. Ч. 2: Словообразование. Морфология. Москва: "Просвещение".(1987).
2. Abdurahmonov, G., Mamajonov, A. O'zbek tili grammatikasi. I qism. Sintaksis. Toshkent: O'qituvchi. (1982).

3. Современный русский язык. Н. С. Валгина, Д. Э. Розенталь, М. И. Фомина. Москва: "Логос".(2001).
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili. A. G'ulomov tahriri ostida. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti. (2006).
5. Розенталь, Д. Э. Справочник по русскому языку. Практическая стилистика. Москва: Оникс. (2003).
6. Qilichev, E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya. Toshkent: TDIU nashriyoti. (2006).
7. Лопатин, В. В. (Ред.). Русский толковый словарь. Москва: Рус. яз. (1998).